



ISSUES OF SOCIAL PROTECTION AND EMPLOYMENT OF DISABLED VETERANS OF WORLD WAR II (THE CASE OF UZBEKISTAN)

Alisher Bozorovich Parnomov

History teacher and researcher

Secondary General Education School No. 75

Email: alisher260380@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: World War II, disabled people of war, social protection, pension certificate, material assistance, employment, retraining courses, state policy, Kashkadarya region, social stability.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article discusses the issues of social protection and employment of disabled people of World War II using the example of Uzbekistan. It analyzes the procedures for assigning benefits by disability groups, the legal significance of the pension certificate, and forms of material assistance provided by the state. It also extensively examines the system of retraining, employment, and social benefits for disabled people. Based on practical experience in the Kashkadarya region, mechanisms for supporting disabled people and their families are highlighted. The study reveals the economic and moral significance of the system of employing disabled people in ensuring the stability of society during the war.

IKKINCHI JAHON URUSHI NOGIRONLARINI IJTIMOY HIMOYA VA MEHNATGA JALB ETISH MASALALARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Alisher Bozorovich Parnomov

Shahrisabz tumani 75-sonli umumiy

o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi, tadqiqotchi

alisher260380@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, urush nogironlari, ijtimoiy himoya, pensiya guvohnomasi, moddiy yordam, mehnatga jalb qilish, qayta tayyorlash kurslari, davlat

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi nogironlarini ijtimoiy himoya qilish va mehnatga jalb etish masalalari O'zbekiston misolida yoritilgan.

siyosati, Qashqadaryo viloyati, ijtimoiy barqarorlik.

Unda nogironlik guruhlarini bo'yicha nafaqa tayinlash tartiblari, pensiya guvohnomasining huquqiy ahamiyati hamda davlat tomonidan berilgan moddiy yordam shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironlarni qayta kasb-hunarga tayyorlash, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy imtiyozlar tizimi keng ko'rib chiqilgan. Qashqadaryo viloyatidagi amaliy tajribalar asosida nogironlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritib berilgan. Tadqiqot urush davrida jamiyat barqarorligini ta'minlashda nogironlarni qo'llash tizimining iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatini ochib beradi.

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ И ТРУДОУСТРОЙСТВА ИНВАЛИДОВ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

Алишер Бозорович Парномов

Учитель истории и исследователь,

Средняя общеобразовательная школа №75

Эл. почта: alisher260380@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, инвалиды войны, социальная защита, пенсионное удостоверение, материальная помощь, трудоустройство, курсы переподготовки, государственная политика, Кашкадарьинская область, социальная стабильность.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы социальной защиты и трудоустройства инвалидов Великой Отечественной войны на примере Узбекистана. Анализируются порядок назначения пособий по группам инвалидности, юридическое значение пенсионного удостоверения и формы материальной помощи, предоставляемой государством. Также подробно рассматривается система переподготовки, трудоустройства и социального обеспечения инвалидов. На основе практического опыта Кашкадарьинской области рассматриваются механизмы поддержки инвалидов и их семей. Раскрывается экономическое и моральное значение системы трудоустройства инвалидов в обеспечении стабильности общества в годы войны.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillarida millionlab insonlar frontda hayotdan ko'z yumdi yoki sog'lig'idan ayrildi. Ayniqsa, frontda jarohatlangan va nogironlikka uchragan harbiy xizmatchilar urushdan keyingi davrda jamiyatning alohida e'tibor talab etuvchi toifasiga aylandilar. Ularning

moddiy va ijtimoiy ta'minoti davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Nogironlikka uchrash sabablari va darajasi bo'yicha ularni turli guruhlariga ajratish, pensiya guvohnomalari orqali nafaqa tayinlash, turli moddiy yordam va imtiyozlar berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, nogironlarni mehnatga jalb qilish, ularni qayta kasb-hunarga o'qitish, ijtimoiy hayotga integratsiya qilish masalalari ham davlat siyosatida muhim o'rin tutdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida frontda jarohatlangan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar davlat tomonidan maxsus toifa sifatida e'tirof etildi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari yo'lga qo'yildi. Urush nogironlariga nafaqa va moddiy yordam tayinlash tartibi huquqiy jihatdan aniq belgilab qo'yildi. Masalan, 1940 yilgi hamda 1941 yil 5 iyundagi SNK qarorlariga ko'ra, harbiy xizmat chog'ida jarohat olgan, kontuziyaga uchragan yoki kasallik sababli mehnat qobiliyatidan mahrum bo'lgan shaxslar nogiron sifatida davlat pensiya ta'minotiga olindi[1. B.146-150]. Davlat ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida nogironlik sabablari va darajasiga qarab turli ko'rinishdagi moddiy yordam mexanizmlarini joriy etdi. Birinchi navbatda, nogironlikka uchrash sabablariga ko'ra toifalash amaliyoti yo'lga qo'yildi:

1) Jang jarayonida jarohat olish, kontuziya yoki xizmat vazifalarini bajarish vaqtida kasallikka duchor bo'lish natijasida nogironlikka uchraganlar.

2) Xizmatdan tashqari holatlar, ya'ni baxtsiz hodisalar, xizmat bilan bog'liq bo'lmagan kasalliklar orqali nogiron bo'lganlar[2. B.38].

Shu asosda nogironlikning I, II va III guruhlari belgilandi. Davlat yordami ham aynan ushbu guruhlariga bog'liq tarzda ajratildi:

I guruh nogironlari uchun nafaqa miqdori 150 rubl etib belgilandi.

II guruh nogironlari oyiga 90 rubldan 120 rublgacha olishdi (holatga qarab).

III guruh nogironlari uchun esa 50 foizdan 75 foizgacha ish haqi miqdorida yordam belgilandi.

Agar oilasi boquvchisini yo'qotgan bo'lsa, ularning farzandlari va mehnatga layoqatsiz yaqinlari ham davlat tomonidan nafaqa bilan ta'minlandi. Shu bilan birga, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida nogiron bo'lganlarga ustuvorlik berildi, ularning nafaqasi yuqoriroq belgilanardi.

Shu tariqa, urush davrida nogironlikning sababi va og'irlik darajasi davlat tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordam hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu tizim front ortida qolgan oilalarni ijtimoiy himoya qilish va jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida nogironlikka uchragan harbiy xizmatchilarga nafaqa tayinlanishida maxsus rasmiy hujjat — "Pensiya guvohnomasi" muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu guvohnoma "Ikkinchi jahon urushi nogironi" degan maxsus yozuv bilan berilar va nafaqa olish huquqini rasman tasdiqlardi.

Ushbu hujjat har bir nogironni mahalliy harbiy komissariatlar yoki ijtimoiy ta'minot organlari orqali hisobga olishni ta'minladi. Shu tariqa, nafaqa tayinlash jarayoni markazlashtirilgan va qonuniy yo'l bilan amalga oshirildi.

1943 yildan e'tiboran nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi kengaytirildi. Davlat nafaqa va moddiy yordamdan tashqari ularning oilalari uchun turli imtiyozlar joriy etdi: uy-joy to'lovlari, soliqlar, bolalar ta'limi uchun to'lovlardan ozod etish kabi yengilliklar berildi. Shuningdek, harbiy xizmatchining yordamga muhtoj oila a'zolarini ishga joylashtirish, mehnatga layoqatli a'zolarini ish bilan ta'minlash muhim vazifa qilib qo'yildi.

Urush nogironlarini ish bilan ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'ldi. 1942 yildan boshlab maxsus kurslar va qayta tayyorlash muassasalari tashkil etildi, natijada minglab nogironlar turli kasblarga o'qitilib, ishga joylashtirildi. Mehnat bilan ta'minlash nafaqat iqtisodiy samara berdi, balki nogironlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 1942 yil oxiriga kelib faqat Mordoviyada 2800 dan ortiq nogiron ishga joylashtirilgan. Shu bilan birga protez ishlab chiqarish korxonalari soni ko'paytirilib, 1943 yilga kelib yuz minglab nogironlar zarur protezlar bilan ta'minlandi.

Urushdan keyingi yillarda ham davlat nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash siyosatiga katta ahamiyat berdi. 1946 yildan boshlab ularning pensiyalari ikki barobar oshirildi, mehnat qilish imkoniyati cheklangan shaxslarga maxsus imtiyozlar va uy-joy qurishda yordam ko'rsatish amaliyoti kengaytirildi. Shuningdek, mehnat internatlari tashkil etildi, u yerda nogironlar nafaqat mehnat faoliyati bilan band bo'ldi, balki davlat tomonidan to'liq ijtimoiy himoyaga ega bo'ldi[3. B. 146-150].

Shunday qilib, 1941–1945 yillarda urush nogironlarini ijtimoiy himoya qilish va mehnatga jalb etish davlat siyosatida muhim o'rin tutdi. Bu tizim nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy jihatdan ham ahamiyatga ega bo'lib, urush yillarida mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda, shuningdek, frontdagi g'alabaga hissa qo'shishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyin front ortidagi aholi, xususan, Qashqadaryo viloyatidagi urush qatnashchilari oilalari davlat tomonidan moddiy yordam bilan ta'minlangan. 1945–1946 yillarda viloyatda urushdan qaytgan nogironlar uchun davlat tomonidan ish o'rinlari ajratilgan, ko'pchilik kolxozlarda alohida brigadalar tuzilgan.

1944-yil 8-martdagi SSSR Xalq Komissarlari Sovetining qaroriga asosan, harbiy xizmatchilar oilalariga nafaqa tayinlash va moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy etildi. Qashqadaryoda 1945-yilda 1200 dan ortiq urush qatnashchilari oilasiga yordam ko'rsatilgan[4. B.23].

Xullas, Ikkinchi jahon urushi nogironlarini ijtimoiy himoya qilish masalasi urush va undan keyingi davrda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Pensiya va moddiy yordam

tayinlash, uy-joy va soliq imtiyozlari, nogironlarning oilalarini qoʻllab-quvvatlash orqali davlat ularning turmush darajasini yaxshilashga intildi. Bundan tashqari, nogironlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash, ish bilan taʼminlash orqali ularning jamiyatga qayta moslashuvi taʼminlandi. Ushbu tizim nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamladi, balki urush yillarida aholi ruhiyatini koʻtarish, ijtimoiy adolat va birdamlikni qaror toptirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Oʻzbekiston SSR, xususan Qashqadaryo viloyatida ham bu yoʻnalishda qator ishlar amalga oshirilgan boʻlib, urush qatnashchilari va ularning oilalari davlat tomonidan muntazam qoʻllab-quvvatlab kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Абуязова Д.А. Социальная защита инвалидов войны в 1941–1945 гг. (Вестник Мордовского университета, 2007, №2). – С.146-150.
2. Постановление СНК РСФСР от 6 ноября 1941 г. // Собрание постановлений и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства РСФСР. – 1941. – №7. – С. 38.
3. Абуязова Д.А. Социальная защита инвалидов войны в 1941–1945 гг. (Вестник Мордовского университета, 2007, №2). - 146-150.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 136-fond, 6-roʻyxat, 402-ish, 23-varaq.